
# 4 jildlik “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”

Ulug’ so’z san’atkori Alisher Navoiy tavalludining 581 yilligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti navoiyshunos olimlari tomonidan tayyorlangan 4 jildlik “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ning I jildi G’afur G’ulom nomli nashriyot-matbaa uyida bosmadan chiqdi.




“Alisher Navoiy ensiklopediyasi” O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O’zining bebaho asarlari bilan ona tilimizning qadrini va qaddini tiklagan buyuk mutafakkir ajdodimiz Alisher Navoiy hayoti

va ijodining mukammal ensiklopediyasini yaratish ham oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biridir” so’zlarini iqtibos keltirish bilan boshlangan. Kitob taniqli navoiyshunos, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqul so’zboshi bilan boshlanadi.

Ensiklopediyani nashrga tayyorlashda O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O’zbek mumtoz adabiyoti bo’limining f.f.d., bo’lim boshlig’i M.Asadov, f.f.d., prof., bosh ilmiy xodim I.Haqqul, f.f.n., katta ilmiy xodimlar Q.Ergashev, S.Rafiddinov, S.O’tanova, f.f.b.f.d., katta ilmiy xodim Z.Rahmonovalardan iborat olimlar jamoasi va respublikamiz hamda xorijdagi navoiyshunoslar ishtirok etishgan.

Ensiklopediyaning I jildi A – K harflariga tegishli qomusiy maqolalarni o’z ichiga qamrab oladi. Kitob Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan “AAZZ” so’zining izohiga bag’ishlangan maqola bilan boshlanib, “KO’HI QOF” maqolasi bilan tugaydi. Maqolalar mazmuni, ahamiyatlilik darajasiga ko’ra hajman turlicha. Ular orqali ulug’ shoir shaxsiyati, u yashagan tarixiy, ijtimoiy davr va asarlarining g’oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida atroflicha ma’lumotlarga ega bo’lish mumkin.

To’rt jildlik “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”ni to’la nashr etish 2021 – 2023-yillarga mo’ljallangan bo’lib, uning I va II jildlari 2022-yil so’nggigacha sotuvga chiqarilishi rejalashtirilgan.